

JAMIYATDA MILLIY BIRLIKNI TA'MINLASH MASALALARINI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA HUQUQIY ASOSLARI HAMDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR HAQIDA

Mamatqulova Ozoda Xikmat qizi
TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda milliy birlikni ta'minlash masalalarini tahlil etishning nazariy-metodologik va huquqiy asoslari, milliy birlikni ta'minlashning ahamiyati va millatlararo munosabatlar bayon etilgan, shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan tegishli xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, millat, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy birlik, milliy g'urur, mustaqillik, millatlararo munosabatlar, hamkorlik, tolerantlik, ma'naviyat, islohot, strategiya.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА ВОПРОСОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЕДИНСТВА В ОБЩЕСТВЕ И МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Маматкулова Озода
Преподаватель кафедры "Общественные науки" ТДПУ

Аннотация: В данной статье описаны теоретико-методологические и правовые основы анализа вопросов национального единства в обществе, значения национального единства и межэтнических отношений, а также соответствующие выводы по данной теме.

Ключевые слова: общество, нация, национальное сознание, национальное самосознание, национальное единство, национальная гордость, независимость, межнациональные отношения, сотрудничество, толерантность, духовность, реформа, стратегия.

THEORETICAL-METHODOLOGICAL AND LEGAL BASIS OF THE ANALYSIS OF ISSUES OF PROVIDING NATIONAL UNITY IN THE SOCIETY AND ON INTERNATIONAL RELATIONS

Mamatkulova Ozoda
Teacher of the "Social Sciences" department of TDPU

Abstract: This article describes the theoretical-methodological and legal foundations of the analysis of issues of national unity in society, the importance of national unity and inter-ethnic relations, as well as relevant conclusions on this topic.

Keywords: society, nation, national consciousness, national self-awareness, national unity, national pride, independence, inter-ethnic relations, cooperation, tolerance, spirituality, reform, strategy.

Mana bugun insoniyat XXI asrda yashamoqda. Shu kungacha butun insoniyat tarixida juda ko‘plab ijobiy va salbiy voqealar yuz berdi. Fan-texnika yuksaldi. Juda ko‘plab insonlarning hayotdan bevaqt ko‘z yumishiga sababchi bo‘lgan urushlar sodir bo‘ldi. Juda ko‘plab ilmiy kashfiyotlar qatorida insoniyat o‘zini ham yo‘q qilib yuborishga qodir bo‘lgan dahshatli qurollarni ham kashf etdi. Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: Xo‘sh, salbiy voqea-hodisalarning asosiy sababi nima edi? Har bir inson bu masala bo‘yicha o‘zining fikr-mulohazasini aytishi mumkin. Lekin, o‘ylab qaraydigan bo‘lsak, barcha muammoning kelib chiqishining tub ildizi ma‘naviyatning sust ekanligidan dalolat beradi. Chunki, “ma‘naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymone‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch”¹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ma‘naviyat insonning, xalqning va jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini to‘g‘ri anglab yetishi va jamiyat tomonidan qabul qilingan islohotlarga befarq bo‘lmasligi hamda iymoni va e‘tiqodi mustahkamligida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, bugungi kunda Yer yuzida inson ongini egallash uchun tinimsiz mafkuraviy kurash ketayotgan bir pallada ma‘naviyatga ehtiyoj har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, inson ongini egallash uchun kechadigan kurash ma‘lum bir davlatni hududiy egallash uchun kechadigan kurashdan ham ko‘p salbiy oqibat olib kelishi mumkin.

Chunonchi, Chor Rossiyasining Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarini bosib olishda aynan xalqning ma‘naviyatini yo‘q qilishga asoslanib ish tutganligi ham yuqorida qayd etilgan masalaning nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin, Chor Rossiyasi o‘zining asl maqsadiga erisha olmadi. Buning asosiy sababi, jamiyatda hali ham millat va uning kelajagini o‘ylaydigan vatanparvar hamda millatparvar ziyolilarning mavjudligida hamda ular tomonidan vatanni tashqi dushmanlardan himoya qilishda milliy birlikning muhim ekanligi anglanganligida edi. Chunki, yurtimiz tuprog‘ini qonga belagan chor zobitlaridan biri bo‘lgan general Skobelevning: **“Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san‘atini, tilini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi tanazullga uchraydi”**², deb aytgan behayo so‘zlari bekorga aytilmagan edi, albatta. Bundan kelib chiqadiki, ma‘lum bir millatni tobe qilish uchun uning ma‘naviyatini yo‘q qilishning o‘zi kifoya qiladi. Shuningdek, ushbu yovuz kuchlar o‘zlarining qabih maqsadlari yo‘lida o‘sha millatning birligi hamda jipsligini buzishga harakat qiladi. Bular esa

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.:“Ma‘naviyat”, 2008, 19-bet

² Sovet hokimiyati davrida O‘zbekistonning ma‘naviy-madaniy qaramligi va uning oqibatlari (milliycha.uz)

ommaviy qirg'in quollaridan-da dahshatli oqibat olib kelishi mumkin. Mana shu kabi tahdidlarga qarshi kurashda ma'naviyatning, milliy birlikning beqiyos o'rni mavjud.

Har bir millatning yuksalishida, uning taraqqiy topishida mazkur millat har bir vakilining milliy o'z-o'zini anglashi juda katta ahamiyatga ega. Milliy o'zlikni anglash har bir inson uchun ma'naviy komillikning ustuvor mezonlaridan biri hisoblanadi. Buning boisi, inson, avvalo, o'zining kim ekanligini bilib olsa, qaysi millatga mansub ekanligini anglab yetsa, ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy va ma'naviy merosni o'zlashtirsagina u to'laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shaxslar millatning ko'pchilik qismini tashkil qilsagina, mana shunday millatning istiqboli buyuk bo'ladi. Shuning bilan birga o'zini chuqur anglab yetgan, ko'zi ochilgan, aqli raso, g'oyaviy-siyosiy jihatdan uyg'ongan va jipslashgan xalq va millatni, o'tmishda bo'lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, ma'naviyati, qadriyatlarini oyoqosti qilish, boylklarini talab ketish, huquqlarini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, o'tmishda "...bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi"³. Shuning uchun ham milliy o'z-o'zini anglashning ahamiyati beqiyosdir.

O'z-o'zini anglash bu: xalqning, millatning o'tmishini, uning tarixiy taraqqiyot yo'lini, avlod-u ajdodlarining kim bo'lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati tamadduni va taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini bilib olishdir. milliy o'zlikni anglash—o'z Vatanining gullab-yashnashini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlarga ega ekanligini teran anglab yetish, ular bilan faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun o'zini safarbar etish, buning uchun o'zining kuch-g'ayratini ishga solishdir. Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'naviyat zarur bo'lganidek, milliy o'zlikni anglash ham asosiy shart hisoblanadi.

Milliy o'z-o'zini anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'liqdir.

Milliy o'zlikni anglash hayotda millat sha'ni, qadr-qimmatini poymol etilganda yoki millatning manfaatlariga nisbatan ikkinchi bir kuch tomonidan kuch ishlatilgan holatlarda yanada kuchli namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, qaysi darajada bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro birlashadilar va o'z millatining manfaatlarini himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglashning ushbu belgisi—milliy manfaatlar, ehtiyojlar umumiylikini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish va uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

Mening fikrimcha, milliy o'zlikni anglash omilining qudrati quyidagi sharoitlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

³ Karimov I. Milliy istiqloq mafkurasi- xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T: O'zbekiston, 2000 y, 11-bet.

- **birinchidan**, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, millatning manfaatlariga zid harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar;

- **ikkinchidan**, milliy o'zlikni anglash his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlarida orqali bilib olish mumkin bo'ladi.

- **uchinchidan**, milliy o'zlikni anglash omili milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi.

- **to'rtinchidan**, milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, uning abadiyligini ta'minlab turuvchi mustahkam vosita hamdir.

Mustaqilligimiz qo'lga kiritilgandan keyin tarixiy xotirani tiklash milliy tiklanishning, o'zlikni anglashning muhim omili sifatida yetakchi bo'lib keldi. U milliy birlikni mustahkamlashda va milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, shuni qayd etishim mumkinki, milliy o'zlikni anglash, nafaqat o'z zaminlari asosida rivojlanish, o'z millatining manfaatlarini himoya qilish ruhiyatining mustahkamligi, shuning bilan birga millatning jahonning taraqqiy qilgan mamlakatlari darajasida rivojlanish yo'lida fidoyilik ko'rsatishga intilishga harakat qiluvchi vakillarining salmog'ining oshib borishida ham o'z ifodasini topadi. Millatimiz ana shu yo'nalishda ham o'zining munosib o'rniga ega bo'layotganligi milliy o'zligimizni anglashning rivojlanayotganligini ko'rsatib turadi. Bu o'z navbatida ma'naviyatimiz rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib bormoqda.

Qaysiki millatning har bir vakili qalbida va ongida o'z millatiga nisbatan cheksiz g'urur, faxr, muhabbat tuyg'usi shakllangan bo'lsa, milliy birlik shakllanishiga erishish mumkin va bu juda katta ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Chunki, davlatda milliy birlikning mavjud bo'lishi mazkur davlatning tinchligini, taraqqiyotini, gullab-yashnashini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Aynan, milliy birlik mavjud bo'lgandagina mazkur millat vakili o'z millatdoshiga nisbatan qalbida cheksiz muhabbat tuyg'usini his qiladi. Axir, bejizga birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tan-u, bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa o'zbek xalqini hech kim, hech qachon yenga olmaydi"⁴. Haqiqatdan ham biz har doim jipslashib harakat qilsak, bizni hech kim yenga olmaydi. Biz ahil bo'lishimiz uchun esa, eng avvalo, har birimizning qalbimizda milliy birlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi lozim.

Har bir ma'naviyati yuksak mamlakat o'z hududida yashayotgan turli millat

⁴ Agar biz: 1. Ahil bo'lsak 2.El-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak 3.O'zimizdan sotqin chiqmasa O'ZBEK xalqini hech kim,hech qachon yenga olmaydi. (hikmatlar.uz)

vakillarining barqaror rivojlanishi va ularning manfaatlarini uyg'unlashtirishni o'z siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi va shu asosda faoliyat olib boradi. Bunday faoliyat millatlararo totuvlik hamda hamkorlikni ta'minlaydi va mamlakatning barqaror rivojlanishiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni bu borada bugungi kunda mamlakatimizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan maqsadlardan kelib chiqib, shuni aytishim mumkinki, bugungi kunda bizning mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillariga o'zlarining huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishlari uchun teng sharoit hamda imkoniyatlar yaratib berilgan. Bu fikrimning tasdig'i o'laroq, "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash"⁵ davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: "Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug'imiz – bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir"⁶.

Vatanimiz O'zbekistonning yuksalishi, o'zbek millati gullab-yashnashining tarafdori bo'lgan har bir o'zbekistonlik fuqaro millatlararo totuvlik, do'stlik qoidalariga sodiq bo'lishi lozim. Chunki, mustaqil davlatimizning kelajagi birinchi navbatda, o'zbek xalqining o'zligini qanchalik anglab yetganligiga hamda mamlakatimiz hududida yashayotgan barcha millat vakillarining bir-birini ko'nglini ola bilishiga, ularning qalbida o'zaro ishonch, muhabbat tuyg'usining mavjud ekanligiga, do'stona munosabatlarning o'rnatilishiga bog'liq.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli millat va elat vakillari tinchlik hamda totuvlikda hayot kechirmoqda. Ular o'zbeklar bilan birgalikda bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Mamlakatimizda har bir millatga o'zining tili, madaniyati, urf-odatlarini, rasm-rusumlari tiklash, tarixiy vatan bilan aloqa va munosabatlarni bog'lashga, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochib berilgan. Bu esa mamlakatimiz barqaror rivojlanishining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Xullas, milliy o'zlikni anglashni shakllantirish yo'lida fidoyi bo'la oladigan jonkuyar – O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov so'zi bilan aytganda, "Elim deb, yurtim deb yashovchi, shu yo'lda hatto jonini ham ayamaydigan", "o'zidan so'ng ozod va obod Vatan qoldiradigan" farzandlarni tarbiyalashimiz zamon va makon talabi hisoblanadi. Bunga yurtimizda yashayotgan har bir kishi qaytsi millat vakili ekanligidan qat'iy nazar mas'ul bo'lmog'i lozim. Yoshlarimiz qalbi va ongida o'zligini unutmaslik, ajdodlarning muqaddas merosini avaylab-asrash va hurmat qilish fazilatlarini shakllantirish barchamizning zimmamizda

⁵ "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, № PF-60-son, 28 yanvar 2022 yil. 74-maqсад 2-vazifa.

⁶ I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T. "O'zbekiston". 1999 yil. - 9 bet.

turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lmog‘i lozim.

Bugun barchamiz milliy birlik, milliy totuvlikka har qachongidan ko‘ra muhtojmiz. Agar biz yagona millat sifatida birlasha olsak kuchli bo‘lamiz, taraqqiyotga erishamiz va barcha sohalarda olg‘a yuramiz hamda muvaffaqiyatga erishamiz. Aks holda, bir-biriga dusahman va kuchsiz millatga hamda dunyo davlatlari ichra qoloq, johil va madaniyatsiz mamlakatga aylanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrda “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5876-sonli Farmoni.
2. “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, № PF-60-son, 28 yanvar 2022 yil. 74-maqсад 2-vazifa.
3. I.A. Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”. T. “O‘zbekiston”. 1999 yil. - 9 bet.
4. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T: O‘zbekiston, 2000 y, 11-bet.
5. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.:”Ma’naviyat”, 2008, 19-bet
6. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
7. Ибраимов Х. И. Креативность как одна из характеристик личности будущего педагога //Наука, образование и культура. – 2018. – №. 3 (27). – С. 44-46.
8. Ibragimovich X. I. O ‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TEXNOLOGIYALARINI QO ‘LLASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – С. 209-214.
9. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." *International journal of discourse on innovation, integration and education* 1 (2020): 6-15.
10. Abdullaeva, B. S., Sobirova, M. A., Abduganiev, O. T., & Abdullaev, D. N. (2020). The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2706-2714.
11. Oglu, Abduganiev Ozod Tursunboy. "Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Social Active Civil Competence In Students." *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education* 12, no. 7 (2021): 433-442.
12. Abduganiyev, O. T. (2022, December). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS. In *E Conference Zone* (pp. 10-13).
13. Abduganiev O. Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.